

DAVLAT HOKIMIYATI VA BOSHQARUVNI DEMOKRATLASHTIRISH SOHASIDAGI ISLOHOTLARNING AHAMIYATI

Gulbahar Pirniyazova

Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7261465>

Malumki, davlat va jamiyat hayotini demokratlashtirish mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlangan. Xususan, 1990 yil 24-martda prezidentlik institutining joriy etilishi bu jarayonni boshlab berdi desak adashmaymiz. Shu asosda, 1991 yil 29 dekabrda birinchi prezidentlik saylovining o'tkazilishi, 1992 yil O'zbekistonda viceprezident lavozimining bekor qilinishi va boshqaruvning mahalliy boshqaruv tizimini joriy etish b'oyicha 1992 yil 2 yanvardan boshlab «hokim» lavozimining joriy etilishi, 2002 yil 27 yanvardagi "Referendum yakunlari va davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy tamoyillari haqida"¹gi Konstituciaviy Qonunning qabul qilinishi bilan qonun chiqaruvchi hokimiyatni tubdan isloh qilish asosida davlatimizda ikki palatali parlamentning joriy etilishi, Ikki palatali parlamentning joriy etilishi asosida Prezident vakillik muddatining o'zgartilishi hamda unga tegishli ayrim vakolatlarning oliy xududiy vakillik palata Senatga o'tkazilishi demokratlashtirish jarayonining asosini tashkil etadi. Bundan tashqari ijro etuvchi hokimiyat tizimida 2005 yildan boshlab «Bosh vazir» lavozimining joriy etilishi hamda 2007-yildan boshlab Konstituciadan davlat Prezidenti bir vaqtning o'zida ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i ekanligini belgilaydigan normaning chiqarilishi ushbu davrdagi ahamiyatli siyosiy-huquqiy voqealarning biri bo'ldi².

"O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohatlar juda muhim bir maqsadga, ya'ni hokimiyatlar bo'linishi konstituciaviy prinsipini hayotga tatbiq etish, hokimiyatlar ortasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta'minlash b'oyicha g'oyat dolzarb chora-tadbirlarni ko'rishga qaratilgan edi"³ deya davlatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov 2010 yil 27 yanvardagi Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi ma'ruzasida ham aynan davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish masalalariga alohida to'xtalib o'tgan edi. Ushbu g'oyalar asosida "O'zbekiston Respublikasi Konstituciyasining moddalariga tuzatishlar kiritish to'g'risida (89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "2002 yil 27 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi referendum yakunlari b'oyicha qonunchilik faoliyatining asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi Qarori // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. –2002. –№4–5. –61-moddasi.

² Конституционное право. Учебник. /Авторский коллектив. Т.: ТГЮУ-2018. С.135.

³ Karimov I.A. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi".// 2010 yil 12 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi maruzasi.

moddasining ikkinchi qismiga)»gi Qonuni qabul qilinib, unga kóra, Konstitusiyamizning 89-moddasi yangi tahrirda qabul qilindi. Va Konstitusiyaning 89-moddasida “Ózbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi” degan qoida belgilab qóyildi. Natijada Prezidentning ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i sifatidagi [norma olib tashlandi](#), parlament faoliyatiga oid “muxolifat”, “kópchilik” kabi tushunchalar kiritildi.

93-moddaning 15-bandi quyidagicha tahrir qilindi: “15) viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi. Konstitusiyani, qonunlarni buzgan yoki óz sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident óz qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli”.

102-moddaning ikkinchi qismi quyidagicha tahrir etildi: “Viloyat va Toshkent shahar hokimi Ózbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunga muvofiq tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi”.

Ózbekiston Respublikasi Prezidentining ilgari egallab turgan Vazirlar Mahkamasi Raisi lavozimining tugatilishi davlat hokimiyati va boshqaruvini liberallashtirish va demokratlashtirish yólida muhim qadam bóldi.

Yanada islohotlarning demokratlashtirilishi natijasida 2014 yil 16 apreldagi «Ózbekiston Respublikasi Konstituciyasining ayrim moddalariga ózgarish va qóshimchalar kiritish haqida (32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga)»⁴gi qonuni asosida Konstituciyaning 98 moddasida bosh vazir lavozimining Konstituciyaviy statusi va vazifalari belgilandi.

Malumki, mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida ótkazilayotgan keng kólamli islohotlarning natijadorligiga erishishda davlat boshqaruvining mutlaqo yangi, samarali va sifatli tizimini yaratish, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining uygun faoliyatini tashkil etish muhim hisoblanadi.

Davlat boshqaruvi organlarining zamonaviy talablarga javob bermaydigan institucional asoslari va ular faoliyatining prinsiplari ótkazilayotgan islohotlarni tóliq róyobga chiqarishga hamda qóyilgan maqsadlarga erishishga tósqinlik qiladi.

Xususan, davlat funkciyalari va vakolatlarining haddan tashqari markazlashtirilganligi hududlarni rivojlantirish dasturlarini shakl-lantirish va aholining eng muhim muammolarini hal qilishda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rolining pasayishiga olib kelshi mumkin⁵.

Bugungi kunda davlatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyat rivojini yangi bosqichga kótarish, hayotning barcha sohalarini liberallashtirish, mamlakatimizni modernizaciya qilish bóyicha eng

⁴ «Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг айрим моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида (32, 78, 93, 98, 103 ва 117-моддаларига)» ги Қонуни «Халқ сўзи», 2014 йил 17 апрел

⁵ Исмаилова Г. Ўзбекистонда маҳаллий давлат ҳокимияти ва ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятини либерallashtiriшнинг давлат ҳуқуқий йўналишлари. 2-нашр. / Т.: Akademiya, 2014. -25 б.

muhim ustuvor yonalishlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarga muljallangan «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish b'oyicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmonining qabul qilinishi mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning yangi bosqichi boshlanganini anglatadi. Ushbu hujjatda 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yonalishi b'oyicha Harakatlar strategiyasi mujassamlashgan b'olib, ularning birinchisi davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yonalishlarini o'zida ifodalaydi. Bu yonalishning dastlabki vazifasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish b'oyicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmonida «davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish 58 b'oyicha vakolatlarini yanada kengaytirish»ga doir strategik vazifa q'o'yildi. Mazkur vazifa mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirishga karatildi. Harakatlar dasturida Oliy Majlisning hokimiyatlar b'olinishi principiga asosan boshqa hokimiyat tarmoqlari bilan muvozanatni va o'zaro bir-birini tiyib turishni taminlash, uning davlat boshqaruvidagi ishtirokini oshirish maqsadida «Parlament nazorati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va q'o'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish, loyihada Oliy Majlis Qonunchilik palatasining deputati va Senat azosi tomonidan parlament nazorati shakli sifatida mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini o'rganib, tahlil qilish hamda uning natijalari b'oyicha tegishli choralar k'orish, Oliy Majlisning tadbirkorlik subektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish b'oyicha vakili - biznes ombudsmanni parlament nazorati subekti sifatida belgilanishi k'orsatildi.

Shuningdek, Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida Mamuriy islohotlar koncepciyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni 2017-2021 yillarda mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yonalishi b'oyicha [Harakatlar strategiyasini](#) amalga oshirishda muhim qadam hisoblanadi hamda mohiyatiga k'ora O'zbekistonning davlat va jamiyat qurilishida yangi sahifani ochib berdi desak adashmaymiz.

Koncepciyada davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilishning 6 ta asosiy yonalishi belgilab berilgan b'olib, to'rtinchi yonalish, aynan vertikal boshqaruv tizimi va ijro etuvchi hokimiyat organlari hamkorligining mexanizmlarini takomillashtirishga ba'g'ishlangan.

Shuni qayd etish lozimki, nomarkazlashtirish jarayonlari har qanday mamlakatda davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiyalashga qaratilgan islohotlarning ajralmas qismi ekanligini va zamonaviy davlat boshqaruvi institutlarini va mexanizmlarini joriy etish hamda ular faoliyatining samaradorligini oshirish zaruriy shartlardan biri ekanligini kuzatish mumkin.

Bu boradagi xorijiy davlatlar tajribasi órganilgan tadqiqotlarda⁶ keltirilgan malumotlarga murojaat qiladigan bólsak, har bir davlatning boshqaruv organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining munosabatlarini shakllantirishda óziga xos jihatlari mavjudligi namoyon bóladir.

Zamonaviy hokimiyat taqsimotining birinchi muhim xarakteristikasi bu ijro etuvchi hokimiyat va qonun chiqaruvchi hokimiyat órtasidagi yaqin ózaro aloqalarni tashkil etishdir. Franciyalik olim J.L.Shabo vakillik va ijroiya hokimiyatining faoliyati ularning bólinish principiga asoslangan davlatlarni (AQSH), hamkorlikka asoslangan davlatlarni (Buyuk Britaniya) yoki aralash usulga asoslangan (avtoritar rejimlar) davlatlarga bólinishini ajratib kórsatgan.

Umumiy jabhada, xorijiy mamlakatlarda mahalliy vakillik organlarining ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati ustidan nazorat olib borish, ijro hokimiyati organi rahbariga nisbatan ishonchsizlik votumini bildirish, mahalliy byudjetning ijro etilishini nazorat qilish, qonunlar ijro etilishini tekshirish, normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash, deputatlik sórovi yuborish kabi nazorat shakllari orqali huquqiy tartibga solish hamda amalga oshirish mexanizmi órnatilgan.

Misol uchun, Lyuksemburg va Belgiya qirolliklarida mahalliy vakillik organlari mahalliy darajadagi barcha masalalar yuzasidan nazorat olib borish bilan birga, mahalliy siyosatni belgilaydilar. Bunday vakolatlar sirasiga mahalliy boshqaruv ijro apparati rahbarlarini tayinlash, politsiya faoliyatini muvofiqlashtirish, suv taminoti, yong'in xavfsizligi kabi xizmat kórsatish organlarining hisobotlarini tinglash kiradi. Ushbu amaliyotni Evropa Ittifoqining boshqa davlatlarida, xususan, Polshada ham uchratish mumkin.

Davlat rahbari tomonidan qabul qilingan «Ózbekiston Respublikasida Mamuriy islohotlar koncepciyasini tasdiqlash tógrisida»gi Farmon⁷ 2017-2021-yillarda Ózbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yónalishi bóyicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda muhim qadam hisoblanadi hamda mohiyatiga kóra Ózbekistonning davlat va jamiyat qurilishida yangi sahifani ochib bergan hujjatlardan biri sifatida xizmat qilmoqda.

Xususan, ushbu koncepciyasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilishning 6 ta asosiy yónalishi belgilab berilgan bólib, ular qóyidagi yónalishlarni takomillashtirishga qaratilgan: .

Birinchidan, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining institucional va tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

Ikkinchidan, ijro etuvchi hokimiyat organlarining vazifalarini, ularni amalga oshirish mexanizmlari va javobgarlik sohalarini aniqlashtirish;

Uchinchidan, iqtisodiyot tarmoqlariga mamuriy tasirni qisqartirish va boshqaruvning bozor mexanizmlarini kengaytirish;

Tórtinchidan, vertikal boshqaruv tizimi va ijro etuvchi hokimiyat organlari hamkorligining mexanizmlarini takomillashtirish;

⁶ А.Махмудов, Ўзбекистон Республикасида маҳаллий вакиллик органларининг назорат фаолиятини такомиллаштириш, Автореферат, 2019 й., 17-18 бетлар.

⁷ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 37-сон, 979-модда.

Beshinchidan, davlat boshqaruvi tizimiga strategik rejalashtirishning zamonaviy shakllari, innovacion g'oyalar, ishlanma va texnologiyalarni joriy etish;

Oltinchidan, professional davlat xizmatining samarali tizimini shakllantirish, shuningdek, korrupciyaga qarshi kurashishning tasirchan mexanizmlarini o'rnatish belgilangan.

Yani qayd etish kerakki, ushbu yo'nalishlarning har birini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, ularga erishish uchun quyidagilar rejalashtirilgan:

- davlat xizmatining shaffofligi va ochiqqligini taminlash, aholi bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yishning yangi mexanizmlarini joriy etish;
- davlat xizmatchilarining mehnatiga haq to'lash va ijtimoiy taminotining zamonaviy tizimini kiritish orqali ularning mehnat unumdorligini oshirish.

Shuningdek, Konsepciyada belgilangan mamuriy islohotlardan kutilayotgan natijalardan biri bu innovacion rivojlanishning jahon tendencyalariga javob beradigan davlat boshqaruv tizimini yaratish, shuningdek, davlat boshqaruvini byurokratiyadan holi etish va uning sarf-xarajatlarini pasaytirish, boshqaruv qarorlari qabul qilish tizimining shaffofligini oshirishdir. Kutilayotgan bu natijalarga erishishda O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 08-yanvarda qabul qilinib, bir yildan keyin yani 2019 yilning 10 yanvaridan qonuniy kuchga kirgan «Mamuriy tartib-taomillar to'g'risida»gi Qonuni⁸ning qabul qilinishi bilan mamuriy tartib-taomillarning ochiqqligi, shaffofligi va tushunarliqligi; manfaatdor shaxslar huquqlarining ustunligi; byurokratik rasmiyatchilikka yo'l qo'yilmasligi; mamuriy ish yuritishning «bir darcha» orqali amalga oshirilishi kabi prinsiplarning qonun doirasida mustahkamlab berilishi fuqarolarning davlat xizmatlaridan foydalanish yuzaga keladigan muammolarning echimi sifatida ahamiyat kasb etdi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarni davlat boshqaruviga joriy etishning yangi bosqichlariga o'tishda, bir qator geografik, demografik va iqtisodiy sabablarga ko'ra rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Etibor beradigan bolsak, davlat xizmatlarini ko'rsatishning ananaviy (elektron bo'lmagan) usullari saqlanib qolmoqda, bu esa o'z navbatida nafaqat mamlakat aholisining ko'pchilik qismining kompyuter savodxonligini oshirish bilan cheklanmasdan, balki ushbu elektron xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini ham tenglashtirish lozimligini anglatadi.

Qayd etish kerakki, adabiyotlarda elektron davlat xizmatlarining ananaviy tarzda ko'rsatilayotgan davlat xizmatlaridan ajralib turadigan xususiyatlari sifatida qo'yidagilar ajratib ko'rsatilgan:

- ariza beruvchi va davlat xizmatini ko'rsatuvchi subekt o'rtasida aloqaning yo'qligi;
- davlat xizmatlarini ko'rsatishning mamuriy tartib-qoidalarini elektron shaklga o'tkazilishi;

⁸ Qonun hujжатlari maълумотlari миллий базаси, 09.01.2018 й., 03/18/457/0525-сон

- istalgan vaqtda va istalgan joydan davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati⁹.

Shuningdek, Ózbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 dekabrda PQ-4546-son qarori bilan tasdiqlangan «Byurokratik tósiqlarni qisqarttirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy etish bóyicha Yól xaritasining 2-bandida «Davlat organlari va tashkilotlarida hisobot va hujjat aylanishini yuritishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish bóyicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishning mexanizmi sifatida 2021 yil 1 yanvardan boshlab qogóz kórinishidagi blanklar, shakllar va jadvallarni tóldirishdan tóliq voz kechishni nazarda tutuvchi hisobot va hujjat aylanishini yuritish belgilab berilishi sarf-xarajatlar chiqimini kamayttirish va fuqarolarning, davlat organlari xodimlarining kóp vaqtlarini tejashiga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, qonun ustuvorligini rivojlantirishda, albatta, fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengayttirish bilan ham amalga oshirish yaxshi natija berishi sózsiz.

Shu munosabat bilan davlat fuqarolarga davlat tomonidan qaror qabul qilishda va uning faoliyatini nazorat qilishda ishtirok etish imkoniyatini yaratish kerak. Masalan, davlat organlarining rasmiy veb-saytlarida qonun loyihalarini jamoatchilik muhokamasi mexanizmi aholining fikrini inobatga olishga imkon beradi, bu esa davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqini amalga oshirishning zamonaviy namoyishi hisoblanadi. Organlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmi davlat hokimiyati va ularning qarorlari, shuningdek, mamlakatimizda fuqarolik jamiyati va huquqiy rivojlanishiga hissa qóshadi. Shunday qilib, raqamli texnologiyalar óziga xos fazilatlari yordamida davlatning jamiyat oldidagi ochiqligi va javobgarligini oshirishga yordam beradi. Shu órinda qayd etish kerakki, bugungi kunda davlat boshqaruvi va jamiyatning barcha sohalariga joriy etilayotgan raqamlashtirishning dolzarbligini anglagan holda, uning joriy etilishini tezlashtirish maqsadida davlatimiz rahbari tomonidan “Raqamli Ózbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari tógrisida”gi 2020 yil 5 oktyabrda PF-6079-son Farmoni¹⁰ qabul qilindi.

“Raqamli Ózbekiston – 2030” strategiyasi bilan órta va uzoq muddatli istiqbolda Ózbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishning maqsadlari, ustuvor yónalishlari, vazifalari va bosqichlari belgilangan, bu davlat boshqaruvi tizimida va iqtisodiyot sohalarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish uchun asos hisoblanadi.

⁹ Аманиязова, С. (2022). Понятие и суть «Электронного правительства». *Современные тенденции развития цифровизации в сфере юстиции*, 1(1), 71–74. <https://doi.org/10.47689/978-9943-7818-1-8-MTDDFI-2021-pp71-74>.

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2020 йил 5 октябрдаги ПФ-6079-сон Фармони. // www.lex.uz

Ushbu Farmon bugungi kunda davlatimizning raqamlashtirish sohasidagi milliy siyosati yonalishlarini belgilab beruvchi tayanch normativ-huquqiy hujjat vazifasini bajarmoqda, deya ayta olamiz.

Qayd etish kerakki, davlatimiz mustaqillikga erishgan dastlabki kunlardan boshlab-oq, axborotlashtirish siyosati davlat siyosatining asosiy yonalishlaridan biri sifatida amalga oshirilib kelinmoqda. Axborotlashtirish siyosatini huquqiy tartibga soluvchi qonunchilik bazasi yaratish bosqichlari huquqshunoslar tomonidan urganilib, asosan beshta bosqichga ajratilgan holda tahlil qilingan. Xususan, birinchi bosqich – 1991-2007 yillarni, ikkinchi bosqich – 2007-2012 yillarni, uchinchi bosqich – 2013-2016 yillarni, to'rtinchi bosqich – 2017-2021 yillarni, beshinchi bosqich – 2021 yildan bugungi kungacha bulgan davrni o'z ichiga qamrab olgan holda takomillashtirilmoqda¹¹.

Malumki, 2020 yilda dunyoning barcha davlatlari, shu qatori Uzbekiston Respublikasi uchun ham qiyin epidemiologik vaziyatni keltirib chiqargan pandemiya holati ham aynan raqamli texnologiyalarni joriy etish vazifasini tezlatish, asosiy etibor va kuch raqamlashtirish tizimini barcha jabhalarga joriy etishda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish davlat siyosatining asosiy yonalishiga aylanib qolmoqda¹².

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga m'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarga m'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" da inson qadriini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvor davlat barpo etish bo'yicha: davlat boshkaruvi organlari faoliyatini "fuqarolarga xizmat qilishga yo'naltirish" tamoyili asosida transformaciya qilish, ixcham, professional, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish, davlat boshqaruvi tizimida mamuriy apparatni ixchamlashtirish va ish jarayonlarini maqbullashtirish, "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini 100 foizga etkazish hamda byurokraziyani bartaraf etish, Xalq bilan muloqotning mexanizmlarini takomillashtirish kabi bir qator maqsadlarning belgilab olinishi amaldagi qonunchilik bazasiga ham bir qator o'zgartirish va qoshimchalar kiritishni taqoza etadi.

Demak, xulosa qilib aytadigan bolsak, davlat hokimiyati va boshqaruv sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar birinchidan, ijro etuvchi hokimiyatni shakllantirish tartibining yanada demokratiyalashtirilganligini bildiradi; ikkinchidan, innovacion rivojlanishning jahon tendenciyalariga javob beradigan davlat boshqaruv tizimini yaratishga, uchinchidan, davlat boshqaruvini

¹¹ Аманиязова, С. Б. Этапы формирования правовых и концептуальных основ процессов цифровизации в Республике Узбекистан / С. Б. Аманиязова // Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения. – 2022. – Т. 18. – № 5. – С. 33-40. – DOI 10.12737/jflcl.2022.062. – EDN ZBAMQA.

¹² Аманиязова, С., Наурузбаева, Г., & Шагилова, Г. (2021). ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИЖРО ЭТУВЧИ ҲОКИМИЯТ ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР ЖОРИЙ ЭТИЛИШИНING ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ. *Збірник наукових праць ЛОГОС*.

byurokratiyadan holi etish va uning sarf-xarajatlarini pasaytirishga; tórtinchidan, boshqaruv qarorlari qabul qilish tizimining shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

Davlat hokimiyat organlari faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali “Elektron parlament”, “Elektron hukumat” tizimlarini rivojlantirish orqali davlat boshqaruvi organlari faoliyati ochiqqligini taminlashga xizmat qilishi bilan birga, fuqarolarning davlat xizmatlaridan onlayn foydalanish imkoniyatlari kengayishiga erishish mumkin. Buning uchun ushbu tizimlarni samarali ishlashi uchun xududlar va sohalar kesimida raqamli infratuzilmani yaxshilashga qaratilgan qonunchilik bazasini takomillashtirish maqsadga muvofiq bólar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”.// 2010 yil 12 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi maruzasi.
2. А.Махмудов, Ўзбекистон Республикасида маҳаллий вакиллик органларининг назорат фаолиятини такомиллаштириш, Автореферат, 2019 й., 17-18 бетлар.
3. Аманиязова, С. (2022). Понятие и суть «Электронного правительства». Современные тенденции развития цифровизации в сфере юстиции, 1(1), 71–74. <https://doi.org/10.47689/978-9943-7818-1-8-MTDDFJ-2021-pp71-74>.
4. Аманиязова, С. Б. (2022). ЖУРНАЛ ЗАРУБЕЖНОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА И СРАВНИТЕЛЬНОГО ПРАВОВЕДЕНИЯ. ЖУРНАЛ ЗАРУБЕЖНОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА И СРАВНИТЕЛЬНОГО ПРАВОВЕДЕНИЯ Учредители: Институт законодательства и сравнительного правоведения при Правительстве РФ, 18(5), 33-40.
5. Аманиязова, С., Наурузбаева, Г., & Шагилова, Г. (2021). ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИЖРО ЭТУВЧИ ҲОКИМИЯТ ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР ЖОРИЙ ЭТИЛИШИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ. Збірник наукових праць ЛОГОС.
6. Исмаилова Г. Ўзбекистонда маҳаллий давлат ҳокимияти ва ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятини либераллаштиришнинг давлат ҳуқуқий йўналишлари. 2-нашр. / Т.: Akademiya, 2014. -25 б.
7. Конституционное право. Учебник. /Авторский коллектив. Т.: ТГЮУ-2018. С.135.